



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

LISONIY BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasida
ingliz tili o'qituvchisi

Lisoniy birliklarni tadqiq qilish, ularning o'zaro munosabatlari, xususiyatlarini tadqiq qilish tillarda yuz berayotgan hodisalar, tillarning shakllanishi, boyishini o'rghanish, kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni taxmin qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada lisoniy birliklarning pragmatik munosabatlari va ularning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Pragmatika inson nutqi, uning maqsadi, mazmuni, til birliklarining nutqdagi harakatini o'rjanuvchi tilshunoslikning sohasi hisoblanadi. Til birliklari nutqda ishlatilganidagina pragmatik vazifa bajaradi. Chunki pragmatika so'zlovchining nima maqsadda bu til birliklaridan foydalanayotgani va ularning tinglovchiga ta'sirini o'rjanadi. O'zbek tilshunosligida pragmatika nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, yaqin yillardan beri bir qator tilshunoslardan o'rjanilib kelinmoqda. Sh. Safarov, M. Hakimovlar o'zlarining o'zbek tilining pragmatikasiga oid dastlabki ishlarini e'lon qilishgan. Bu soha tilshunosligmizda nisbatan yangi soha bo'lganligi sababli ko'plab tadqiqotlarga, muhokamalarga muhtoj. Ayniqsa, hozirgi kommunikatsiya davrida tinglovchini ishontirish, nutq jarayonida pragmatik to'siqqa duch kelmaslik, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida murosaga kelish, manipulatsiyaga uchramaslik uchun pragmatik bilimga ehtiyoj avvalgi asrlarga qaraganda ancha kuchli.

Pragmatika va grammatika bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, grammatika lisoniy birliklarning vazifalari va xususiyatlarini, pragmatika esa ularning nutqda so'zlovchi nima maqsadda ishlatayotganlagini o'rjanadi. Lisoniy birliklarning nutqdan tashqari holatlari pragmatikaning o'rghanish doirasiga kirmaydi. Lisoniy birliklar nutqdan ajratilganda o'zining pragmatik xususiyatini yo'qotadi.

Masalan: ‘Duxtir, siz bilan yashash qiyin, 10 yil birga yashab ro'shnolik ko'rmadim’.

Ushbu gapda “duxtir” so'zi “turmush o'rtoq”, “er” ma'nosida kelgan. O'zbekistonning aksariyat viloyatlarida er yoki xotinni kasbi yoki unga berilgan maxsus unvon, martaba bilan chaqiriladi: “domla”, “qori aka”, “duxtir”, “eshon bobo” kabi. Kontekstdan ajratilganda ushbu so'zlarning hech biri “er” so'ziga sinonim bo'lmaydi. “Duxtir” so'zi turdosh ot bo'lib, “doktor” so'zining shevaga xos shakli.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ot so'z turkumiga tegishli, gapda undalma vazifasinibajargan. Hech bir lug'atda bu so'zning "er" so'ziga ma'nodosh bo'la olishi haqida yozilmagan. Bu hodisa faqat pragmatikada o'rganiladi. So'zlovchi erini bunday chaqirishi erining kasbining u uchun ahamiyatlilagini yoki faxrlanishini bildiradi.

"*Qizim, pochta qayerdaligini aytib yuborasizmi?*". Ushbu gapda "qizim" so'zining lug'aviy ma'nosni "*ayol jinsiga mansub farzand*". Lekin notanish odamning ko'chadagi notanish qizga "qizim" deb murojaat qilishdan maqsadi uning o'sha qizni o'ziga yaqin olganligi sabablidir.

"*Hurma kuchuk, indamasa o'zingdan ketasan, o'chir ovozingni*" ushbu gapda ham kuchuk, hurma so'zlari insonga nisbatan salbiy ma'noda ishlatilgan bo'lib, "*jim bo'l*" ma'nosida kelgan. So'zlovchi ushbu birikmani ishlatish orqali tinglovchini vovillayotgan kuchukka o'xshatib uni kamsitmoqchi.

"*Eshak, loydan yurganining nimasi? Qachon odam bo'lasan? Sen meni tamom qilasan?*".

Ushbu gapda so'zlovchini "eshak" so'zini ishlatishdan maqsad bolasini tergash, unga tanbeh berishdir.

Ko'rib turganimizdek, lisoniy birliklarning nutqdagi holati, so'zlovchining ulardan nima maqsadda foydalanishi pragmatikaning obyekti. So'zlovchining nutqini to'liq tushunishda pragmatik bilimning o'rni beqiyos. Tillarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish tillarning qo'shimcha imkoniyatlarini ochishga, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga, tildan to'g'ri va samarali foydalanishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Ariel, Mira (2008), Pragmatics and Grammar, Cambridge: Cambridge University Press.

Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O'zbek tili va adabiyoti. 2001.

Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Toshkent, 2008.

Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Farg'ona, 2020.